

UDK: 636.92:637.5:637

QUYONLARDAN SIFATLI GO'SHT OLIHDA OZUQA VA OZUQA QO'SHIMCHALARINING AXAMIYATI

Ibragimov F.M. – mustaqil izlanuvchi
Ibragimov F.B. – ilmiy rahbar.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: ushbu maqolada quyonlarni go'sht uchun boqishda iqtisodiy samaradorlik, go'shtni sifati va xavfsizlik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, o'rganishlar to'g'risida adabiyotlar taxlili ma'lumotlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: oqsil ratsion, so'yim chiqimi koprafagiya, omuxta yem, vitamin, probiotik, gidrolizat, metabolik, hazmlanish.

Kirish. Mamlakatimiz aholisini sifatli va bioekologik jihatdan zararsiz oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida, quyonchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash orqali xalqimizni arzon va sifatli go'sht hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sohani rivojlantirish uchun birinchi navbatda uning ilmiy asoslari yaratilishi lozim. Respublikamiz aholisining oziq-ovqat xomashyosi va daromad manbayiga aylanib ulgurgan soxalardan biri bu-quyonchilikdir. Oziq ovqatga shu bilan bir qatorda go'sht va go'sht mahsulotlariga talab ortib borayotgan bugungi kunda mazkur soxa samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirish dolzarb masala xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-yanvardagi 29-sonli "Respublikada quyonchilik sohasini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida Respublikada quyonchilik sohasini sanoat usulida yanada rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hajmini oshirish, sohada import qilinayotgan mahsulotlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari berish kabi masalalarga to'xtalib o'tilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda quyonchilik bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning ahamiyati kattadir.

Mavzuning dolzarbligi: Olib borgan kuzatishlarimiz shunday xulosaga olib keldiki, hozirgi vaqtda tashkil etilgan quyonchilikni rivojlantirish xo'jaliklari zamon talabida emas, yoki quyonlarni oziqlantirish va sifatli go'sht yetishtirish to'g'risida tadqiqotlar olib borilmagan. Quyonlar go'sht uchun boqilganda ularga beriladigan yem sarfi ko'pligi, bo'rdoqilash davrining uzayib ketishi go'sht tannarxining oshishiga olib kelmoqda.

Shunday ekan quyonlarni tez yetiltirish, bo'rdoqilashda yem sarfi hamda vaqtni tejash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish va shu orqali aholi iste'moli uchun sifatli go'sht ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun kuzatish va tajriba ishlari amalga oshirilishini keng yo'lga qo'yish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifasi: Hozirgi kunda go'sht yetishtirish soxasida arzon va yuqori mahsulot olinadigan ozuqa ratsionlaridan foydalanish

ommalashmoqda. Xususan, quyonlarni oziqlantirish uchun berilayotga turli xildagi omuxta yemlar, vitamin va oqsilli preparatlarning organizm orqali to'lig'icha o'zlashtirilishi uchun probiotiklardan foydalanishning samarasi alohida qiziqish uyg'otadi.

Quyonglar boshqa qishloq xo'jaligi hayvonlariga qaraganda tez yetilishi va tez ko'payishi bilan farq qiladi (Александров С.Н. 2004). Quyonglar juda tez jinsiy voyaga yetadi va bir tug'ishda 6-10 ta bolalaydi, yosh quyonglar tez o'sishi bilan ajralib turadi. 20 kunlikdan 30 kunlikgacha o'rtacha o'sish ko'rsatkichi kunlik 30-40 gramni tashkil qiladi (Ульихина Л.И. 2009).

Quyong go'shti organizmda to'liq qiymatli oqsillar almashinuvida hamda ratsionda yog' miqdorini kamaytiradi (Cullere M. 2018)

S. Gavrilov (2010) ma'lumotlariga ko'ra, quyonglar tuksiz va ko'r bo'lib tug'iladi, tug'ilganda ularning vazni 40 dan 80 g gacha bo'ladi. Ular juda tez o'sadi: 6 kunligida ular allaqachon 80-160 g vaznga ega bo'ladi, 10-14 kun ichida ularning vazni 130-260 g ga yetadi, 18-20 kun ichida – 250-500 g, 45 kun ichida – 700-1500 g, 3 oyda-1400-2200 g yetadi. Dastlabki 20 kun ichida quyonglar faqat ona suti bilan oziqlanadi. Shuning uchun bachadon suti laktatsiyaning 22-24 - kunigacha ko'payadi, keyin pasayishni boshlaydi. Ona quyonglarni to'yimli ratsionda boqish kerak. Dastlabki kunlarda quyonglar uyada bo'lib, bir-biriga tiqilib yotishadi.

G.A. Bogdanovning fikriga ko'ra Go'shtlilik sifatini yaxshilash uchun quyonglarni to'yimli ovqatlantirish kerak. Rasionda oqsil, kletchatka, shuningdek yog', vitaminlar, mineral moddalar va aminokislotalar kabi barcha zarur oziq moddalar bo'lishi kerak

Rasion tuzishda xo'jalikda mavjud ozuqa e'tiborga olinadi. Ozuqaning ozuqaviy qiymati, hayvonning holati va uning tirik vaznini hisobga olish kerak. Rasion turli xil fiziologik guruhlardagi hayvonlarini boqish talablari va me'yorlari asosida tuziladi. Hayvonning energiya, quruq moddalar, ozuqa moddalari, vitaminlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondiradigan rasionga to'yimli oziqa rasioni deyiladi. Quyonglarni to'yimli oziqlantirish hayvonlarning normal fiziologik holatini saqlashga va eng kam ozuqa xarajatlari bilan mahsulot olishga imkon beradi.

G.Dmitriy (2021) ma'lumotlariga qaraganda o'simlik gidrolizatlarini bilan qo'shimcha oziqlantirilgan quyonglarning kunlik tirik vaznini o'sish ko'rsatkichi

6-15,2 % ga yuqoriligi, quyonglar so'yilganda mushak massasining miqdori nazorat guruxiga nisbatan 4,9-13,1% ga oshganligi to'g'risida ma'lumotlar bermoqda.

G.A.Bogdanov quyonglarni boqishda yashil ozuqani asosiy ozuqa bo'ladi deb hisoblaydi. Ular tarkibida juda ko'p protein, minerallar mavjud, shuningdek, ular vitaminlarga va oson xazm bo'ladigan uglevodlarga boy bo'lib, hayvonlarning o'sishi va rivojlanishiga yordam beradi. Foydalanish uchun bu ozuqa universal deb hisoblanishi mumkin, chunki u erta bahordan, to kech kuzgacha quyonglarga berilishi mumkin. Go'sht uchun boqiladigan quyonglarni yashil ozuqa bilan boqish ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga yordam beradi.

Bir qator mualliflarning tadqiqot ma'lumotlaridan kelib chiqib quyonglarni ko'plab minerallar va vitaminlarni o'z ichiga olgan yuqori proteinli ozuqalarda boqilganda eng yaxshi o'sishi va rivojlanishiga erishiladi. Shu sababli, yashil ozuqa

sifatiga bo'lgan talab ortib bormoqda, chunki quyvonlar qafaslarda saqlanadi va yaylovlardan foydalanish imkoniyati yo'q.

E.Chernenkov olib borgan tadqiqotlarga ko'ra quyvonlar ozuqasiga qo'shimcha sifatida probiotikli ozuqalar berilganda tirik vaznining o'sish ko'satkichi probiotik berilmagan quyvonlarga nisbatan 6,3 % ga yuqori bo'lganligini, iste'mol qilinadigan ozuqaning o'zlashtirilishi yaxshilanganligi to'g'risida ma'lumotlar bergan.

N. N. Lisitsin, I. S. Seryakova (2002) va S. N. Xoxrin (2002) ishlari shuni ko'rsatdiki, ozuqaning ozuqaviy qiymati va hayvonlarning mahsuldorligi o'rtasidagi bog'liqliklardan biri hazm qilishning yakuniy mahsulotlari bo'lib, ular ovqat hazm qilish traktida so'riladi va moddalar almashinuvida ishtirok etadi. Hayvonlarning oziqlantirish tizimini takomillashtirish va ularning maxsuldorlik darajasini aniqroq prognoz qilish uchun ozuqaning fizik-kimyoviy xususiyatlarini bilish muhim, chunki ozuqalarning xazmlanish darajasi shunga bog'liq, shu bilan birga metabolik mahsulotlar va mahsuldorlik o'rtasidagi bog'liqlik xususiyatini aniqlash kerak.

Oziq moddalarning hazmlanishi quyidagi omillarga bog'liq: hayvonning turi, yoshi, fiziologik holati, shuningdek ozuqa sifati, ratsion va uning energiya bilan to'yinganligi. Hayvonlarga beriladigan turli xil kimyoviy tarkibli ozuqalar oziq moddalarining turli xil hazm bo'lishiga ega bo'lishi mumkin, natijada ularning maxsuldorligiga ta'sir qilishi mumkin (B. V. Tarakanov, 1998; yu.I. Levaxin va boshqalar, 2010; B. S. Nurjanov va boshqalar, 2011).

Sh.Z.Dolimov (2008) ma'lumotlariga qaraganda bo'rdoqiga boqish davrida yemni to'la iste'mol qilib yuborishlari uchun biroz sho'rroq suv bilan sug'orilsa ishtahalari yaxshi ochiladi. Bo'rdoqiga boqishning so'nggi pallasida quyvonlar kam harakatchan bo'lib qolishib, yemga qiziqishlari batamom so'nadi. Bu holat ularning yetilganlik alomatidir. Yaxshi semirgan quyvonning kurak va oyoqlari orasi hamda yog' qatlami orasida arang ko'rinadigan buyrak sohasi ko'p yog' bosadi. Yosh quyvon so'yiladigan eng mahsuldor davr, u 4,5 oyga to'ladigan vaqtga to'g'ri keladi. Quyvonning ushbu vaqtda semirishi bir ozuqa birligini iste'mol qilganida vazniga 25-30 gr vazn qo'shilishi bilan kechadi, kelgusida esa ushbu ko'rsatkich 10-5 gr ga qadar tushib ketadi. Demak yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib O'zbekistonda quyvonlarni oziqlantirish va sifatli go'sht yetishtirish to'g'risida tadqiqotlar olib borilmagan. Shunday ekan quyvonlarni tez yetiltirish, aholi iste'moli uchun sifatli go'sht ishlab chiqarish uchun kuzatish va tajriba ishlari amalga oshirilishini keng yo'lga qo'yish dolzarb masala hisoblanadi. Xususan, quyvonlarni oziqlantirish uchun berilayotga turli xildagi omuxta yemlar, vitamin va oqsilli preparatlarning organizm orqali to'lig'icha o'zlashtirilishi uchun probiotiklardan foydalanishning samarasi alohida qiziqish uyg'otmoqda.

Xulosalar.

1.Quyonchilik fermer xo'jaliklarida ozuqalar sarfini kamaytirish, quyvonlar iste'mol qiladigan ozuqalarni hazmlanishini yaxshilash yo'llarini topish, optimal oziqlantirish ratsionini tuzish orqali sifatli go'sht ishlab chiqarish va samaradorlikni oshirish mumkinligi to'g'risida ilmiy asoslangan ma'lumotlar yetarli emas.

2.O'zbekistonda quyvonlarni oziqlantirish jarayonida probiotiklarning quyvonlar go'shti sifati va xavfsizligiga ta'siri o'rganilmagan va ilmiy asoslangan ma'lumotlar mavjud emasligini hisobga olib, kerakli tavsiyalar ishlab chiqish zarur deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Александров, С.Н. Кролики: разведение, выращивание, кормление / С.Н. Александров, Т.И. Косова. - М.: АСТ, Сталкер, 2006. - 160 с.
2. Сысоев В.С. Кролиководство/ В.С Сысоев, В.Н. Александров. - М.: Агропромиздат, 2010. - 54-56 с.
3. Александр, Снегов Самый полный справочник кролиководы / Снегов Александр. - М.: АСТ, 2015. - 987 с.
4. Sh.Z.Dolimov Tomorqa xo'jaligida quyunchilik Toshkent 2008
5. Boysinovna B. N., Burievich I. F., Shuxratovna A. N. The effect of probiotics on veterinary and sanitary assessment of broiler chickens meat //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 845-849.